

Raxmonov Furqat Abduxakimovich.

Jizzax politexnika instituti, "MS" kafedrası

MUVOFIQLIKNI SERTIFIKATSIYALASHTIRISHNING ASOSIY MAQSADI.

Annotasiya. Mahsulot ishlab chiqarishda sertifikatni qo'llash orqali uning sotuv bozorida raqobatbardoshligi ta'minlansa, iste'molchi olgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarining barqarorligi va ularning me'yoriy hujjatlarga mos kelishi to'g'risida kafolatlanadi.

Kalit so'zlar: mahsulot, korxona, sertifikat, sifat, muvofiqlik, me'yoriy hujjat, milliy tizimi, nazorat, standart, iste'molchi, iqtisodiy komissiya.

Рахманов Фуркат Абдухакимович.

Джизакский политехнический институт, кафедра "МС"

ОСНОВНОЕ НАЗНАЧЕНИЕ СЕРТИФИКАЦИИ СООТВЕТСТВИЯ

Аннотация. При условии обеспечения конкурентоспособности продукции на рынке сбыта путем применения сертификации при ее производстве потребителю гарантируется стабильность полученных качественных показателей продукции и их соответствие нормативным документам.

Ключевые слова: продукт, предприятие, сертификация, качество, соответствие, критерий, национальная система, контроль, стандарт, потребитель, экономическая комиссия.

Rakhmanov Furkat Abdukhakimovich.

Jizzakh Polytechnic Institute, department of "MS"

THE MAIN PURPOSE OF CONFORMITY CERTIFICATION

Annotation. Provided that the competitiveness of products in the sales market is ensured through the application of certification in its production, the consumer is

guaranteed the stability of the obtained quality indicators of products and their compliance with regulatory documents.

Keywords: product, enterprise, certification, quality, compliance, criterion, national system, control, standard, consumer, economic commission.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tish davrida sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash muhim ob'yektiv qonuniyatga aylandi, chunki «sifat» mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asosiy omillardan biridir, albatta bundan mahsulotning ko'pga chidamliligi, kafolatli muddatda xizmat qilib berish bundan mustasnodir.

Demak, sifatli mahsulot ishlab chiqarish uni jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun barcha sanoat korxonalaridagi eski asbob-uskunalar o'rniga zamonaviy bo'lgan xorijiy davlatlarning asbob-uskunolari bilan jihozlash, ishlab chiqarishda, idishlarga joylashtirish, saqlash va tashishda, hamda ulardan samarali foydalanganda qoyilgan talablarga rioya qilish, mahsulot sifatini barqarorligini ta'minlash lozimdir. Bu talablar turli darajadagi me'yoriy hujjatlar bilan rasmiylashtirilgandir.

Davlatlar orasida iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalarning rivojlanishi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan standartlar jahon bozorida raqobatbarbosh mahsulotlar yetkazib berish bilan uyg'unlashadi. Davlatlararo savdo- sotiq munosabatlarining samarali bo'lishida mahsulot sertifikatsiyasi katta ahamiyatga ega. Bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishda qanday mamlakat bo'lishidan qat'i nazar shu mahsulot sifatiga kafolat beruvchi sertifikatsiyadan foydalanadi.

Mahsulotni sertifikatsiyalashtirish tovar ishlab chiqaruvchilar orasida raqobatli kurashda o'zlarining savdo-sotiqdagi mavqeini mustahkamlashda asosiy vositalardan hisoblanadi. Muvofiqlikni sertifikatsiyalashtirish-bu belgilangan mahsulot, jarayon yoki xizmatning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishini yetarli darajada isbotlaydigan uchinchi tomon faoliyatidir. Mahsulot

ishlab chiqarishda sertifikatatsiyani qo'llash orqali uning sotuv bozorida raqobatbardoshligi ta'minlansa, iste'molchi olgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarining barqarorligi va ularning me'yoriy hujjatlarga mos kelishi to'g'risida kafolatlanadi.

Amalda o'z-o'zini sertifikatatsiyalashtirish faoliyati ham ayrim hollarda qo'llaniladi. Muvofiqlikni sertifikatatsiyalash-tirishning asosiy maqsadi iste'molchi istaklarini, mahsulotni ishlab chiqarishdagi xavfsizlik, inson salomatligi, atrof-muhit muhofazasi masalalari boyicha himoya qilish, mahsulotning raqobatchiligini ta'minlashda uchraydigan turli texnikaviy to'siqlarni bartaraf qilishdan iborat.

Standartlashtirish va sertifikatatsiyalashtirish boyicha huquqiy savdo va qonuniy bog'lanishlar quyidagi xalqaro tashkilotlar orqali amalga oshiriladi:

-BMT qoshidagi Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YEEK); standartlashtirish boyicha xalqaro tashkilot (ISO); sertifikatatsiyalashtirish boyicha ISO qo'mitasi (ISO/SERTIKO);

- muvofiqlikni baholash ISO qo'mitasi (ISO/KASKO);
- savdo va ta'riflar boyicha bosh assambleya (GATT);
- o'lchov va birliklar xalqaro tashkiloti (MOMV);
- qonuniy metrologiya boyicha xalqaro tashkilot (MOZM);
- sifat boyicha Yevropa tashkiloti (YEOK).

O'zbekiston Respublikasida muvofiqlikni sertifikatatsiyalashtirishda mahsulot, jarayon yoki xizmat MDH davlatlari standartlari, O'zbekiston Respublikasi milliy standartlari O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan xalqaro standartlarning talablari bilan taqqoslanadi.

Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohalari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Jahon amaliyotida qo'llaniladigan hamda tadqiqot va mutaxassislar tayyorlash institutlari, shuningdek, vazirlik, idora, uyushma, konsern, korxona va tashkilotlarning fikr va takliflari inobatga olinib, O'zRST 5.5-93 "O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy atama va ta'riflar" davlat standarti 1993 yilda ishlab chiqilib tasdiqlanadi. Mazkur standartdagi atama va ta'riflar xalqaro

tashkilotlar (ISO/IEC-2) tomonidan qabul qilingan atama va ta'riflarga, shuningdek, RST Uz 5.0-98 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi standartlariga mos keladi.

Davlatlar orasida iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalarning rivojlanishi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan standartlar bilan jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berish bilan uyg'unlashadi. Davlatlararo savdo-sotiq munosabatlarining samarali bo'lishida mahsulot sertifikatsiyasi katta ahamiyatga ega. Bir turli mahsulot ishlab chiqarishda turli mamlakatlarda bo'lishdan qat'iy nazar, shu mahsulot sifatiga kafolat beruvchi sertifikatsiyadan foydalaniladi.

Mahsulotni sertifikatsiyalashtirish tovar ishlab chiqaruvchilar orasida raqobatli kurashda o'zlarining savdo-sotiqdagi mavqeini mustahkamlashda asosiy vositalardan hisoblanadi.

Muvofiqlikni sertifikatsiyalashtirish-bu belgilangan mahsulot, jarayon yoki xizmatning ma'lum standartga yoki boshqa meyoriy hujjatga mos kelishini yetarli darajada isbotlaydigan uchinchi tomon faoliyatidir. Mahsulot ishlab chiqarishda sertifikatsiyani qo'llash orqali uning sotuv bozorida raqobatbardoshligi ta'minlansa, iste'molchi olingan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarining barqarorligi va ularning meyoriy hujjatlarga mos kelishi to'g'risida kafolatlanadi.

Amalda o'z-o'zini sertifikatsiyalashtirish faoliyati ham ayrim hollarda qo'llaniladi. Muvofiqlikni sertifikatsiyalashtirishning asosiy maqsadi-iste'molchi istaklarini, mahsulotni ishlab chiqarishdagi xavfsizlik, inson salomatligi, atrof-muhitning muhofazasi masalalari bo'yicha himoya qilish, mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlashda uchraydigan turli texnikaviy to'siqlari bartaraf qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Davlat standartlashtirish tizimi mahsulot sifatini yaxshilash va uning raqobatbardoshligini ta'minlash demakdir. Sifat bo'yicha raqobatbardoshligini ta'minlash uch qismga bo'linadi:

1. Maqsad, ya'ni qaysi bozorda qanday sharoitda ishlab chiqarishni bilish kerak.

2. Funktsional samaradorligi foydaligi jihatdan shu turdagi mahsulotlar bilan taqqoslanadi.

3. Foydalanish paytida tejamkorligi va uning mahsulot bahosi bilan bog'liqligi.

Qo'yilgan talablarning barchasi mahsulotning loyihalashtirish ishlarini foydalanishda yagona qoidalaridan foydalanishni taqozo etadi. Buning hammasi Davlat standartlashtirish tizimi bilan (DST) ta'minlanadi. Standartlashtirish shu bugungi holatda tadbirkorlar va savdo tashkilotlari orasidagi bog'lovchidir. YEYES- tashkiloti standartlashtirish va sertifikatsiyalashga ahamiyatini kuchaytirib, Yevropa bozorlariga sifatsiz mahsulot keltirmaslik va jahon bozoriga sifatsiz mahsulot chiqarmaslikni bajaradi. Jahon miqyosida barcha mamlakatlar mahsulot, jarayon va "xizmat" sohalarini sertifikatsiyalashtiradi, ya'ni uning meyoriy hujjatlar talablariga muvofiqligi tekshiriladi. Bu standartlar jahon standartlariga muvofiq bo'lishi kerak. Bizga ma'lumki, standartlashtirishning asosiy vazifasi Davlat xavfsizligi, mahsulot xavfsizligi, aholi salomatligi, ularning narsalarini buzmasligi, mahsulot sifatini tekshirish va almashinuvchanlik resursini hisobga olish, uni tejash, ilmiy yo'nalishdagi texnologiyani va tashkiliy ishlarni to'g'ri yo'lga qoyishdan iborat. Yuqoridagi mahsulotlarni hal qilishda respublikamizda standartlashtirish texnik qo'mitalari standartlashtirishning asosiy vazifalarini bajarib, ixtiyoriy yig'ilgan mutaxassislar majmuasidan iboratdir.

Texnik mutaxassislar shtati tarmoqlararo yoki davlatlararo standartlash va sertifikatsiyalash ishlari bo'yicha tuziladi. Ularning vazifasi davlat manfaatlari va iste'molchi ehtiyojlarini qondirish, ya'ni yangi meyoriy hujjatlar (MH) yaratish yoki qayta ko'rib chiqish, ularning xalqaro meyoriy hujjatlarga muvofiqligini ta'minlash, standartlash bo'yicha rejalar tuzishdan iborat.

Sertifikatsiyalashtirishning tartibi quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir:

- sertifikatsiyalashtirish o'tkazish uchun qaror va ariza deklaratsiyasini berish;
- sertifikatsiyalashtiriladigan mahsulotdan tajribalar o'tkazish uchun namunalar tanlash;
- mahsulot yoki ishlab chiqarishni sertifikatsiyalashtirish sxemasini tanlash;

-olingan natijalarni tahlil qilib, muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilish;

-davlat standarti ro'yxatidan mahsulotni o'tkazish, muvofiqlik sertifikatini berish;

-xalqaro sertifikatsiyalash tashkilotlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish;

-sertifikatsiyadan o'tgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarining barqarorligini nazorat qilish;

-sertifikatsiya natijalarining axboroti;

-da'volarni ko'rib chiqish.

Sertifikatsiyadan o'tkazish uchun shu sertifikatsiyadan o'tkazadigan tegishli tashkilotga ariza-deklaratsiya va unga qo'shimcha hujjatlar jo'natiladi. Tegishli arizani qabul qilgan tashkilot bir oy davomida hujjatlarni ko'rib chiqib, sertifikatsiyalashga oid talablarga mos kelishi (kelmasligi) to'g'risidagi qarori e'lon qilinadi va qaysi tartibda, kimlar tomonidan o'tkazilishini belgilaydi. Tanlangan namunalar akkreditatsiyalashtirilgan sinov laboratoriyalarida (markazlarda) sinovdan o'tkaziladi. Lozim bo'lsa, sertifikatsiyalashtirish tashkiloti tajribalar o'tkazish uchun uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqishni tashkil etadi. Ijobiy natijalar olinganda bayonnomasi mazkur mahsulotni sertifikatsiyalashtirish tashkilotiga va bir nusxasi ariza beruvchiga jo'natiladi. Ishlab chiqarish tashkiloti tomonidan mahsulotning tarkibi, tartibi o'zgarsa, zudlik bilan axborot berishi kerak. Qabul qilingan sertifikatlashtirish tizimiga ko'ra, sifat yoki ishlab chiqarishni sertifikatsiyalashtirish nazarda tutilsa, muvofiqlik sertifikati berilgunga qadar O'zDst ISO/IES 17021:2009. "Ocenka sootvestviy. Trebovaniya k organam provodyaim audit i sertifikacii sistema menejmenta" meyoriy hujjatlarga muvofiq o'tkaziladi.

Muvofiqlik sertifikati, muvofiqlik belgisidan foydalangan holda RD Uz 00036, 951-004092 NSS UzR "Poryadok vdachi sertifikata sootvetstviya" hujjati bilan amalga oshiriladi. №14058 Pravila. "ot utverjdeniya pravilax sertifikacii" hujjati bilan amalga oshiriladi.

Sertifikatsiyalovchi tashkilot tajriba bayonnomasini olgach, sifat tizimi sertifikatini rasmiylashtiradi, davlat ro'yxatidan o'tib, egasiga topshiradi. Bu sertifikatning muddati mazkur mahsulotga talablar belgilangan meyoriy hujjatlarning muddatiga mos ravishda belgilanadi. Lekin bu muddat uch yildan oshmasligi kerak. Mahsulotning tarkibi yoki ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarsa va uning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etsa, bu haqda sertifikatsiyalash tashkilotiga zudlik bilan axborot berish kerak. Bu tashkilot, o'z navbatida, tajriba vositalariga o'zgartirishlar tavsiya etadi. Shundan keyin ham talablarga mos kelmasa, muvofiqlik sertifikati to'xtatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabr "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-sonli Qarori.

2.Madjidova Sh. G., Ulkanbayeva G.D. "Tikuv-trikotaj buyumlari texnologiyasi". O'quv qo'llanma. T.: TTESI, 2018. – 146 b.

3.Maksudov S.S. Charm buyumlar texnologiyasi, 1-2 jild, T.: TTESI, 2004. – 231 p.

4.Мухаммадиев Б. С. МЕТРОЛОГИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОИЗВОДСТВА В МАШИНОСТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ //Экономика и социум. – 2025. – №. 11-2 (138). – С. 872-875.

5.Saparovich M. B., QO'LLANILADIGAN A. K. M. I. S. O'ZGARTKICHLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA ISHLASH TAMOIYILLARI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – T. 5. – С. 47.

6.Saparovich M. B., Akbarovna K. M. O'LCHASH ISHLARIDA INTELLEKTUAL DATCHIKLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – T. 3. – №. 28. – С. 48.

7.Мухаммадиев Б. С. МАШИНАСОЗЛИКДА ЗАМОНАВИЙ ЎЛЧАШ

АСБОБЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ ЖАРАЁНИ //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR
NAZARIYASI. – 2024. – Т. 7. – №. 6. – С. 149.